



MECHANISMS FOR ENHANCING YOUTH ECOLOGICAL AWARENESS AND CULTURE IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY IN UZBEKISTAN

Nodirjon Ergashevich Togayev

Associate Professor at Samarkand State Pedagogical Institute

togayevnodirjon598@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

Zumrad Baxtiyorovna Agzamova

Master's student at Samarkand State Pedagogical Institute

zumrad129@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ecological consciousness, ecological culture, enlightened society, youth policy, sustainable development, environmental education, social awareness, innovative mechanisms.

Received: 04.05.26

Accepted: 05.05.26

Published: 06.05.26

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing ecological consciousness and culture among youth in the process of building an enlightened society in Uzbekistan. The philosophical and social essence of ecological consciousness and ecological culture is analyzed, and the key factors influencing their development are systematically explored. Particular attention is given to innovative mechanisms for fostering ecological thinking among young people, including the role of the education system, social institutions, and state policy. The study substantiates the importance of improving ecological culture as a critical factor in achieving sustainable societal development.

O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA YOSHLAR EKOLOGIK ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI

Nodirjon Ergashevich Tog'ayev

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

togayevnodirjon598@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

Zumrad Baxtiyorovna Agzamova

Samarkand Davlat Pedagogika instituti magistranti,

zumrad129@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ekologik ong, ekologik madaniyat, ma'rifatli jamiyat, yoshlar siyosati, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, ijtimoiy ong, innovatsion mexanizmlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish jarayonida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etiladi. Tadqiqotda ekologik ong va madaniyat tushunchalarining falsafiy-ijtimoiy mohiyati ochib berilib, ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda yoritilgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida ekologik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari, ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar va davlat siyosati doirasidagi ustuvor yo'nalishlar asoslab berilgan. Maqolada ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОСВЕЩЁННОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Нодиржон Эргашевич Тогаев

Доцент

Самаркандского государственного педагогического института

togayevnodirjon598@gmail.com

Зумрад Бахтиёровна Агзамова

Магистрант

Самаркандского государственного педагогического института

zumrad129@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологическое сознание, экологическая культура, просвещенное общество, молодежь, устойчивое развитие, экологическое образование, социальное сознание, инновационные механизмы.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования экологического сознания и культуры молодежи в процессе построения просвещенного общества в Узбекистане. Раскрывается философско-социальная сущность понятий экологического сознания и экологической культуры, а также системно рассматриваются факторы, влияющие на их развитие. Особое внимание уделяется инновационным механизмам

формирования экологического мышления у молодежи, роли системы образования, социальных институтов и государственной политики. Обосновывается значение повышения экологической культуры как важного условия достижения устойчивого развития общества.

Kirish. XXI asrda insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilar ekan, global miqyosdagi ekologik muammolar inson va jamiyat munosabatlarining tubdan qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi kabi jarayonlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik muammolarni hal etish faqat texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan cheklanib qolmay, balki inson ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirishni talab etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda ma'rifatli jamiyat tushunchasi insonning bilim darajasi, tafakkur kengligi va axloqiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Bunday jamiyatda fuqarolarning atrof-muhitga ongli munosabati, ekologik madaniyati va tabiat bilan uyg'unlikda yashashga intilishi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar qatlamining ekologik ongini yuksaltirish jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat siyosatida ekologik ta'limni rivojlantirish, yoshlarni tabiatga ehtiyotkorona munosabat ruhida tarbiyalash, ekologik ongni ijtimoiy ongning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu esa ekologik madaniyatni shakllantirishni faqat pedagogik muammo emas, balki ijtimoiy-falsafiy, madaniy va institutsional jarayon sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishning samarali mexanizmlarini aniqlash orqali ma'rifatli jamiyatni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy asoslari ochib beriladi. Chunki ekologik ong darajasi yuqori bo'lgan yoshlar jamiyatda mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini egallab, atrof-muhitni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi.

Shu bilan birga, globallashtirish sharoitida turli axborot oqimlari va madaniy ta'sirlar yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ekologik qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va samarali ijtimoiy

mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, ommaviy kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ekologik madaniyatni ommalashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ekologik ong va madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish, ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, shuningdek, samarali institutsional va innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Ekologik ong va ekologik madaniyat masalalari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, pedagogik hamda sotsiologik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, ekologik ongning shakllanishi, uning ijtimoiy ong tizimidagi o'rni hamda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning evolyutsiyasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik ong tushunchasi ko'pincha barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Jumladan, ekologik madaniyat insonning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabati, ekologik bilimlar tizimi va amaliy faoliyat uyg'unligi sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotlarda ekologik ongni shakllantirish jarayoni ekologik ta'lim, tarbiya va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bevosita bog'liq holda yoritiladi. Shu bilan birga, G'arb ilmiy maktablarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarining roli alohida ta'kidlanadi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ekologik madaniyat ko'proq ijtimoiy ongning tarkibiy elementi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvda ekologik ong jamiyatning umumiy madaniy darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u insonning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy mas'uliyati bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Shuningdek, ekologik ta'lim tizimi orqali yosh avlodda ekologik tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslari keng yoritilgan.

O'zbek olimlari tomonidan ham ekologik ong va ekologik madaniyat masalalari so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda ekologik tarbiya, yoshlarning tabiatga ongli munosabatini shakllantirish, milliy qadriyatlar asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, ekologik ta'limni takomillashtirish, uni uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiya qilish, yoshlar ongida ekologik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar shakllanib bormoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarini kompleks, tizimli va institutsional yondashuv asosida o'rganish yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, ma'rifatli jamiyatni shakllantirish kontekstida ekologik ongni rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning bu jarayondagi o'rni yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar, tizimli tahlil va kompleks metodlar uyg'unligiga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy usullardan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usuli orqali ekologik ong va ekologik madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berildi. Taqqoslash usuli yordamida turli ilmiy maktablar va yondashuvlar o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ekologik ongni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar majmui ta'lim tizimi, oila, ijtimoiy muhit, davlat siyosati va ommaviy axborot vositalari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Strukturaviy-funksional metod yordamida ekologik madaniyatni yuksaltirish mexanizmlarining tarkibiy elementlari va ularning funksional ahamiyati aniqlashtirildi.

Tadqiqotda, shuningdek, sotsiologik yondashuv elementlaridan foydalanilib, yoshlarning ekologik ong darajasi, ekologik qadriyatlarga munosabati va amaliy xatti-harakatlari o'rganildi. Bu esa nazariy xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan boyitish imkonini berdi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali O'zbekistonda ekologik siyosat va yoshlar tarbiyasiga oid davlat strategiyalarining ustuvor yo'nalishlari aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish hamda yuksaltirishga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ekologik ong jamiyatning umumiy ma'naviy-ma'rifiy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u nafaqat bilimlar tizimi, balki qadriyatlar, e'tiqodlar va amaliy faoliyat uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu sababli ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayoni ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadi.

Tahlillar asosida yoshlarning ekologik ongini shakllantirishda birinchi navbatda ta'lim tizimining hal qiluvchi o'rni aniqlangan. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik bilimlarni integratsiyalash, fanlararo yondashuv asosida ekologik tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim ko'pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda va bu bilimlarning kundalik hayotdagi amaliy qo'llanilishi yetarli darajada ta'minlanmayapti. Natijada yoshlar

ekologik muammolarni anglash darajasiga ega bo'lsa-da, ularni hal etishda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishda sustkashlik kuzatilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oilaning ekologik tarbiyadagi o'rni nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatdi. Oilada shakllangan ekologik qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari yoshlarning keyingi hayot faoliyatida barqaror motivatsiya vazifasini bajaradi. Biroq urbanizatsiya jarayonlari va zamonaviy turmush tarzi ta'sirida ayrim hollarda an'anaviy ekologik qadriyatlarning zaiflashuvi kuzatilmoqda. Bu esa ekologik madaniyatni mustahkamlashda yangi pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

Ijtimoiy institutlar, xususan, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarning ekologik ongni shakllantirishdagi roli ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar axborotni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilmoqda. Bu esa ekologik madaniyatni targ'ib qilishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, mavjud kontentning sifati va maqsadga yo'naltirilganligi yetarli darajada emasligi aniqlangan, bu esa ekologik ongni chuqurlashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Davlat siyosati doirasida olib borilayotgan ekologik islohotlar ham tahlil qilinib, ularning yoshlar ongiga ta'siri baholandi. Aniqlanishicha, normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi va davlat dasturlarining izchilligi ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda. Biroq bu siyosatning amaliy natijalari ko'p jihatdan uning joylarda qanday amalga oshirilishiga, ya'ni institutsional mexanizmlarning samaradorligiga bog'liq.

Tadqiqot natijalari asosida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishning quyidagi samarali mexanizmlari asoslab berildi. Birinchidan, ekologik ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, bunda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish zarur. Ikkinchidan, ekologik tarbiyada oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsion platformalar orqali ekologik madaniyatni targ'ib etishning samarali modellarini ishlab chiqish talab etiladi. To'rtinchidan, yoshlarni ekologik loyihalar va ijtimoiy tashabbuslarga keng jalb etish orqali ularning amaliy faoliyatini rag'batlantirish muhimdir.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish jarayonida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ekologik ong jamiyat ijtimoiy ongining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat atrof-muhitga munosabatni, balki insonning umumiy ma'naviy-axloqiy darajasini ham belgilab beradi. Shu bois ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi kompleks ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, unda ta'lim tizimi, oila, ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari hamda davlat siyosati o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadi. Ayniqsa, ekologik ta'limning samaradorligi, uning nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa ekologik ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, oilaning ekologik tarbiyadagi o'rni alohida ahamiyat kasb etishi, ammo zamonaviy ijtimoiy jarayonlar ta'sirida ayrim ekologik qadriyatlarining zaiflashuvi kuzatilayotgani aniqlandi. Mazkur holat ekologik madaniyatni shakllantirishda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ijtimoiy institutlar, xususan, raqamli texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining imkoniyatlari ekologik ongni keng targ'ib qilishda muhim resurs sifatida baholandi, biroq ulardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari asosida yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, ekologik ta'limni uzluksiz tizim asosida rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, yoshlarni ekologik faoliyatga keng jalb etish, shuningdek, davlat va jamoatchilik institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifalar sifatida e'tirof etildi. Shu bilan birga, ekologik madaniyatni rivojlantirishda milliy qadriyatlar va an'analarni hisobga olish, ularni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda ekologik ongni shakllantirishning raqamli mexanizmlarini chuqur o'rganish, yoshlarning ekologik xulq-atvorini empirik tadqiqotlar asosida baholash hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy vazifalar sifatida e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Toffler A. Uchinchi to'lqin. – Toshkent: Sharq, 2000. – 312 b.
4. Moiseev N.N. Ekologiya i chelovek. – Moskva: Nauka, 1990. – 256 s.
5. Reimers N.F. Prirodopolzovanie: slovar-spravochnik. – Moskva: Mysl, 1990. – 637 s.

6. Glazachev S.N., Kozlova O.N. *Ekologicheskaya kultura i obrazovanie*. – Moskva: Akademiya, 2005. – 192 s.
7. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
8. United Nations. *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. – New York: UN, 2015. – 41 p.
9. Аллаярова М. М., Кучкаров Ж. С. Духовно-исторические корни национальной идеи узбекского народа // *Философия в современном мире*. – 2017. – С. 21-24.
10. Nurmatova U. J. *Existential and communicative fundamentals of reading* // *theoretical & Applied Science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9). – 2021. – С. 444-449.
11. Tursunova O. *Alisher Navoiy merosida yuridik aktlarga oid huquqiy terminlar* // *Oriental universiteti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*. – 2024. – С. 298.
12. Ризаев И., Хаккулов Н. Синергетический взгляд на философию и общество в трудах Абу Насра аль-Фараби: ключевые принципы и современная значимость // *Hikmet*. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 42-57.